

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XALIMOVA OYGUL BOZORQULOVNA

**ANTRAXINON SINTEZI VA U ASOSIDA BO'YOQLAR OLISH
TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Xalimova Oygul Bozorqulovna

Antraxinon sintezi va u asosida bo‘yoqlar olish texnologiyasi 3

Халимова Ойгул Бозоркуловна

Синтез антрахинона и красителей на его основе 21

Khalimova Oygul Bozorkulovna

Synthesis of anthraquinone and synthesis of dyes based on it 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XALIMOVA OYGUL BOZORQULOVNA

**ANTRAXINON SINTEZI VA U ASOSIDA BO'YOQLAR OLISH
TEXNOLOGIYASI**

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3252 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ikti.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Badriddinova Farida Maxamatdinovna texnika fanlari namoosi, professor
Rasmiy oponentlar:	Ikramov Abduraxab Ikramovich texnika fanlari doktori, professor Abdullayev Jabongir Uruzali o'g'li texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
Yetakchi tashkilot:	Umumiy va neorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSe-03/2025.27.12.T.42.01 raqamli ilmiy kengashining 2026 yil « 14 » 04 soat 09⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahar Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'ch. 32, tel.: (99871) 244-79-20, faks: (99871) 244-79-17, e-mail: ikti_info@tdtu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100011, Toshkent shahar Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'ch. 32, Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « 10 » 03 kuni tarqatildi.
(2026 yil « 10 » 03 daqiqa № 211 raqamli ro'st bayonnomasi).



S.M. Turabdjano
S.M. Turabdjano
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., akademik

X.L. Kadirov
X.L. Kadirov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.d., professor

G. Raimonberdiyev
G. Raimonberdiyev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda neft va gazni hamda kimyo sanoati chiqindilarini qayta ishlab turli mahsulotlarni olishga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Binobarin neft va neft mahsulotlarini, tabiiy gaz mahsulotlarini chuqur qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan ikkilamchi mahsulotlar tarkibidan aromatik uglevodorodlar ishlab chiqarish dolzarb masalalardan biri bo'lib, tashqi muhitga ta'sirini va atrof muhitga zararliligini kamaytirishga qaratilgan hamda import o'rnini bosa oladigan eksportbop materiallarni ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Ishlab chiqariladigan yangi turdagi kimyoviy reagentlarni olish, ulardan foydalanish samarasini oshirish, aromatik uglevodorodlar va ular hosilalari importiga bo'lgan talablarni keskin kamaytirish uchun chiqindilarni qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda neft va gaz sanoati chiqindilarini qayta ishlash, ulardan sifatli reagentlar olish va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Neft va gazni chuqur qayta ishlash sanoatida ikkilamchi mahsulotlari - piroliz kondensati asosida turli reagentlar olish va ularni qayta ishlash usullarini ishlab chiqish orqali standart talablariga mos keluvchi antratsen, antraxinon va ularning hosilalarini olish hamda import mahsulotlar sifat ko'rsatkichlari bo'yicha me'yoriy talablariga javob bera oladigan, to'liq raqobatbardosh muqobil mahsulot ishlab chiqarishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda mahalliy piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti tar-maxsulot asosida olingan antratsen, antraxinon va ularning hosilalari ishlab chiqarish uchun texnologiyani takomillashtirish va qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Bu borada aromatik uglevodorodlar va ularning hosilalari ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish, hamda ular asosidagi ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3246-sonli "Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: VII. «Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tar-maxsulot asosida antratsen, antraxinon va ularning hosilalari ishlab chiqarish texnologiyasi, maxsus katalizator tanlash, neft va gazni qayta ishlab turli usullar bilan aromatik uglevodorodlar ishlab chiqarish texnologiyasi kabi yo'nalishlar bo'yicha quyidagi dunyo olimlari ishlarida izlanishlar natijalari keltirilgan va ular shu sohani rivojlanishida o'zlarining katta hissalarini qo'shishgan.

E.F.Kaminskiy, V.A.Xavkin, A.A.Mirimanyan, A.G.Vixman, I.B.Marishev, Kuznesov D.N., Kobrakov K.I., Ruchkina A.G., Stankevich G.S. kabi chet el olimlari asosan ilmiy faoliyatlarini antraxinonli bo'yovchi moddalar olishda antratsenni toshko'mir smolasidan va piroliz jarayoni suyuq maxsulotlaridan olishga qaratgan. Shu bilan birga sintez jarayonining termodinamik, fizik-kimyoviy, kimyoviy xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga qaratishgan. A.-M. Albu, B. Marculescu, D. Vasilescu, Zhang L., Cole J.M., Waddell P.G., Low K.S., Liu X., Coelho P.J., Castro M.C.R., Fonseca A.M.C., Raposo M.M.M. kabi Yevropa, Xitoy, Amerika olimlari organik tabiatga ega kukunsimon azo va diazo, hamda antraxinon, geterosiklik asosli bo'yovchi moddalar olinishi, xossalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan, izlanishlarni davom ettirishmoqda.

Mamlakatimizda neft va gazni qayta ishlash bo'yicha S.M.Turobjonov, D.Yusupov, A.G.Maxsumov, A.T.Djalilov, K.M.Axmerov, A.Ikromov, S.E.Nurmonov, B.F.Muxiddinov, O.Sh.Kodirov kabi olimlar tomonidan turli neft mahsulotlari tarkibini o'rganish va qayta ishlash sohasida ilmiy izlanishlar olib borilgan va davom ettirilmoqda. Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu olimlar tomonidan turli kimyoviy reagentlar, neft mahsulotlari, piroliz jarayoni ikkilamchi mahsulotlari tarkibidan antratsen va u asosida antraxinon yuqori unum, hamda yuqori tozalikda ajratib olish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Lekin mamlakatimizda piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti – tar-maxsulot tarkibidan antratsen ajratib olish, antraxinon va uning hosilalari sintezi va qo'llanilishi bo'yicha ilmiy, hamda amaliy ishlar muhim vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AL-9124093979 "Qurilish materiallari sanoat korxonalarini ehtiyoji uchun ko'mirni boyitish va gaz olish texnologiyasini ishlab chiqish" (2024-2026 y.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi «Uz-Kor Gas Chemical» QK MChJ piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti – tar-maxsulot tarkibidan antratsen ajratib olish, hamda u asosida antraxinon, polimetilenantraxinonnaftilamin sintezi va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tar-maxsulot tarkibini kimyoviy tahlil qilish va antratsen ajratib olish imkoniyatlarini o'rganish;

tar-maxsulot tarkibidan antratsen ajratib olishning muqobil sharoitini ishlab chiqish;

antratsenni oksidlab antraxinon olish jarayoni muqobil sharoitini ishlab chiqish;

antraxinon, naftilamin va formaldegid asosida bo'yovchi modda – "polimetilenantraxinonnaftilamin" ishlab chiqarish texnologik sxemasini ishlab chiqish;

antraxinon, naftilamin va formaldegid asosida bo'yovchi modda ishlab chiqarish texnologik reglamentini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida «Uz-Kor Gas Chemical» QK MChJ piroliz jarayoni ikkilamchi maxsuloti tar-maxsulot, oksidlovchi sifatida qo'llanilgan nitrat kislota, naftilamin, formaldegid va havo olingan.

Tadqiqotning predmeti tar-maxsulot tarkibidan antratsen olish distillyatsiya usuli, katalitik oksidlash usullari bilan antraxinon olish texnologiyasi, bo'yovchi modda olish texnologiyasi va polikondensatslash jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida asosiy distillyatsiya, katalitik oksidlash, birikish, polikondensatslash tajriba usullari, fizik-kimyoviy IQ-spektroskopiya, xromatografiya, mass-spektroskopiya va kolloid-kimyoviy tahlil usullaridan, eksperimental ma'lumotlarni hisoblash uchun Matlab, Origin va Aspen+ maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy gaz fraksiyalari pirolizi maxsuloti tarkibidan antratsen olinishi va uni oksidlab antraxinon olish jarayonida ham oksidlovchi, ham katalizator vazifasida 56% konsentratsiyali nitrat kislota qo'llanilib yuqori natija berishi ilmiy asoslangan;

antraxinon olinish jarayonida oksidlash unumiga harorat, jarayon vaqti, havo berish tezligi, antratsenning konsentratsiyasi, nitrat kislotani reaksiyon muxitga berish tezligi ta'siri ilmiy asoslangan;

antraxinon bilan naftilamin reaksiya jarayoni maxsuloti olinishida: reaksiya vaqti 45 minut, harorat 105⁰C, reaksiyaga kirishayotgan moddalar mol nisbati 1:1 hamda, jarayon hosil bo'layotgan suv miqdorini o'lchash orqali boshqarilishi kabi parametrlari ishlab chiqilgan;

olingan antraxinonnaftilamin formaldegid bilan metilol guruhlar saqlagan birikma sintezi 2,5 – 3,0 MPa bosimda, 120⁰S haroratda va 4 soat davomida optimal borishi aniqlangan;

antraxinonnaftilaminning metilol guruhlari saqlagan birikmasi normal atmosfera bosimida quritish shkafida 110⁰Sda haroratda, 12 soat davomida polikondensatsiya jarayonida olingan maxsulot "polimetilenantraxinonnaftilamin" polimer moddalar uchun bo'yovchi modda sifatida sintez qilingan;

olingan bo'yovchi modda asosida tarkibida 1,0 – 10,0% pigment saqlagan masterbatch olingan va polietilenda yaxshi erishi, shu bilan birga gamma nurlar ta'sirida polimerning destruksiyasini sekinlashtirishi mumkinligi isbotlangan;

piroliz jarayoni ikkilamchi maxsuloti tar-maxsulot tarkibidan antratsen, uni oksidlab antraxinon, u bilan namtilamin reaksiya jarayoni maxsulotini formaldegid bilan polikondensatsiya maxsulotini olish jarayoni takomillashtirilgan texnologiyasi va vaqtinchalik texnologik reglamenti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

piroliz jarayoni ikkilamchi maxsuloti tar-maxsulot tarkibidan anratsen ajratib olish, anratsenni 56% nitrat kislota bilan havo ishtirokida oksidlab antraxinon olish технологияси ишлаб чиқилган;

anratsenni ajratib olishda fraksiyali xaydash jarayoni o'rganilgan, tar-maxsulotdan anratsenni fraksiyali haydash usulida ajratib olish jarayoni darajasiga ta'sir qiluvchi omillar va jarayonni optimal sharoitlari o'rganilgan, masterbatch tayyorlash uchun pigment olish prinsiplial texnologik sxemasini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan moddalarning struktura va xossalari fizik-kimyoviy tahlil qilishning zamonaviy IQ, gaz xromatografik, mass-spektroskopik tadqiqot usullari yordamida aniqlanganligi, hamda eksperimental va nazariy natijalarning o'zaro mutanosibliги bilan izohlanadi. Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy usullar yordamida amalga oshirilib, «Sho'rtan gaz kimyo kompleksi» MChJ, Toshkent davlat texnika universiteti laboratoriyasi va ishlab chiqarish sharoitlarida tajriba sinovlari dalolatnomalari, ma'lumotnomalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dietilenglikol erituvchisi anratsen, antraxinon, antraxinonnaftilaminlarni va polimetilenantraxinonnaftilamin fraksiyasini ekstraksiyalash, oksidlash, polikondensatlash jarayonlari xususiyatini o'rganilganligi, tar-produkt tarkibidan poliaromatik uglevodorodlarni maksimal darajada ekstraksiyalash jarayoni uchun erituvchini tarkibini aniqlash, oksidlash va polikondensatlash texnologiyasini ishlab chiqish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tar-produktini dearomatlash jarayoni darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni va jarayonni optimal sharoitlarini o'rganilganligi, polimerlarni bo'yash uchun pigment sintezi va ishlab chiqarish prinsiplial texnologik sxemasini ishlab chiqilishi, taklif qilingan usulining texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlarini bo'yovchi modda olishda qo'llash uchun baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Uz-Kor Gas Chemical» QK MChJ ikkilamchi mahsuloti tar-maxsulotdan bo'yovchi modda olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy natijalar asosida:

anratsenni оксидлаб атрахинон олиш технологияси “Sho'rtan gaz kimyo majmuasi” MChJning «2026-2028 yillarda amaliyotga joriy etilishi bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Sho'rtan gaz kimyo majmuasi» MChJ 2025 yil 26 apreldagi 01-9/12-143 sonli ma'lumotnomasi). Natijada anratsen, antraxinon, antraxinonnaftilamin va polimetilenantraxinonnaftilamin kabi mahsulotlari ishlab chiqarishlarda qo'llaniladigan import xomashyolarni mahalliyashtirish imkonini bergan;

polietilenni bo'yash uchun polimetilenantraxinonnaftilamin organik bo'yoq olish texnologiyasi “Sho'rtan gaz kimyo majmuasi” MChJning «2026-2028 yillarda amaliyotga joriy etilishi bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga

kiritilgan («Shoʻrtan gaz kimyo majmuasi» MChJ 2025 yil 26 apreldagi 01-9/12-143 sonli maʼlumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta Xalqaro va 9 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya jami 112 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obʼekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi. Antratsen, antraxinon va hosilalarini olinishi, texnologiyasi va qoʻllanilishi**» deb nomlangan birinchi bobida, adabiyotlar sharhi, jumladan antratsen olinishi va texnologiyasi, antraxinon olinishi va texnologiyasi, boʻyovchi moddalar olinish va texnologiyasi, qoʻllanilishi haqida mahalliy va xorijiy jurnallarda chop etilgan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Maʼlumotlar umumlashtirilgan va ilmiy tahlil qilingan. Ushbu umumlashtirilgan maʼlumotlar asosida ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ular asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqot ishida foydalanilgan moddalar, qoʻllanilgan usullar, antraxinon va naftilamin asosida boʻyoqlar sintezi, tar-maxsulotni fraksiyali haydash jarayonini, matematik modellashtirish va matematik qayta ishlash usullari va olingan birikmalarning fizik-kimyoviy analiz usullari keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Eksperimental qism. Antraxinon asosida boʻyoqlar sintezi va ishlab chiqarish texnologiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy xomashyo asosida antratsen ajratib olish, antraxinon sintezi, qoʻllanilishi, antraxinon va naftilamin asosida boʻyoq olish texnologiyasi, qoʻllanilishi, tar-maxsulotni fraksiyali haydash jarayonida antratsen va uning gomologlarini ishlab chiqarish texnologiyasi oʻrganildi. Tar-maxsulot fraksion haydash qurilmasida antratsen olish maqsadida bir necha fraksiyaga ajratildi.




1 – rasm. Tar-maxsulotni fraksiyon haydash qurilmasi.

Qurilmaning piroliz pechi 1 hajmi 20 litr bo‘lib, unga 10 kg tar-maxsulot solindi va harorat minutiga 20,0 – 25,0^oCdan oshirib borildi. Elektroshitga ulangan tenlar-9 va nazorat uchun harorat datchigi-10 yordamida jarayon harorati boshqarib borildi. Tar-maxsulot fraksiyalarining harorati termometr-4 ko‘rsatgichi asosida belgilab, ajratildi. Fraksiyalarning chiqishini osonlashtirish maqsadida vakuum nasos uchun ulagich nasosga-8 ulab vakuumda ichki 40,0 – 45,0 kPa bosimda haydab olindi. Tar-maxsulot fraksiyalari teskari sovutgichda -5 to‘g‘ri oqimda 20^oC haroratdagi suv bilan sovutib, sovutgichga -5 ulangan kolbada -6 yig‘ib olindi. Konstruksiya shtativga- 7 maxkam ulangan.

Piroliz jarayoni ikkilamchi maxsuloti “tar-maxsulot” vakuumli fraksiyon haydash orqali olingan 320 – 360 ^oS haroratlar orasidagi anratsen va uning gomologlari fraksiyasi kimyoviy tarkibini o‘rganish maqsadida fizik-kimyoviy tahlil qilindi. Tahlillar sifat va miqdoriy o‘rganish maqsadida gaz xromatografiya mass spektrometriya (GCMS) usulida olib borildi.

Piroliz xom ashyosi turiga qarab tar-mahsulot tarkibi o‘zgaruvchan bo‘ladi. “UZ-KOR GAS CHEMICAL” QK MCHJ piroliz jarayoni mahsuloti namunasi kimyoviy tarkibini sifat jihatdan o‘rganish maqsadida zamonaviy fizik-kimyoviy analiz turi yordamida o‘rganildi. Continuum va Raman-moduli mikroskop bilan ulangan IK-Fure spektrometr Nicolet 6700 zamonaviy analitik priborda analiz qilindi, tahlil natijalari 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Tar-mahsulotning IQ-spektrogrammasi.

Tar-mahsulot tarkibidan anratsenni ajratib olish uchun dastlab 20 litr hajmdagi haydash qurilmasi kubiga 7,0 kilogramm tar-maxsulot solindi va fraksiyalash qurilmasiga o'rnatildi. Qizdirish elektr ten qurilmasi yordamida harorat minutiga 10°C dan oshirib borildi. Tar-mahsulot tarkibidagi dastlabki fraksiya 250-340°C harorat oralig'ida ajratib olindi. Ikkinchi fraksiya sifatida 340-360°C harorat oralig'ida ajratib olindi va tarkibi xromato-mass-spektrometrik tahlil usulida o'rganildi, olingan natijalar 1 – jadvalda, hamda 3-rasmda keltirildi.

Xromato-mass-spektrometrik tahlil usuli: Kapillyar yordamida "Agilent Technology" GC 6890 / MS 5973N 5% fenilmetilsiloksan bilan 30m × 0,25 mm o'lchamdagi ustunlar dimetilsiloksanlar, tashuvchi gaz - vodorod, injektor harorati - 280°C, MS manba harorati - 230°C, MS to'rt kutupli harorati - 180°C, ustunli termostat haroratini 100 dan 280°C gacha dasturlash bilan, haroratning ko'tarilish tezligi 10°C min, namuna hajmi 1 µl, bo'linmasdan rejimda olib borildi.

Ikkinchi fraksiya tarkibi asosan anratsen gomologlaridan iborat ekanligi tahlillar natijalaridan ko'rinib turibti.



3 – rasm. Anratsen fraksiyasi GXMS xromatogrammasi.

Tahlil natijasida olingan miqdoriy va sifat analizi natijalari 1 – jadvalda keltirildi.


1 – jadval.

Anratsen fraksiyasi kimyoviy tarkibi

Modda nomi	Massa ulushi
Engil uglevodorodlar	4,23
Anratsen	69,23
1-metilanratsen	5,63
2-metilanratsen	5,21
Fenantren	1,25
1-etilanratsen	4,73
1,8-dimetilanratsen	5,61
Og'ir uglevodorodlar	4,11

Olib borilgan tahlil natijalari tar-mahsulot tarkibidan ajratib olingan fraksiya tarkibida anratsen va uning gomologlari, fenantren va uning gomologlari kabi ko'p yadroli aromatik birikmalar borligini tasdiqladi.

Tadqiqot ishida tar-mahsulot tarkibidan olingan antratsen va uning gomologlari fraksiyasini ajratib olish va uni nitrat kislota ishtirokida oksidlash jarayonlari orqali antraxinon olish natijalari keltirilgan. Tar-mahsulotni fraksiyali xaydash natijasida olingan antratsenli fraksiya oksidlovchilar ishtirokida oksidlanib antratsendan antraxinon, antratsen gomologlaridan turli karbon kislotalar hosil bo'lganligi va hosil bo'lgan mahsulotlarning tarkibini tasdiqlovchi fizik-kimyoviy tadqiqot natijalari keltirilgan.



C:\Users\BRUKER\Documents\Bruker\OPUS_8.7.10\DATA\MEAS\ETANOL-ANTRASEN.0 ETANOL-ANTRASEN Instrument type and 6/16/2022

a) Page 1/1 6/16/2022 4:20:00 PM

Search Library

Color	Ht Quality	Compound name	CAS Number	Molecular formula	Molecular weight
	871	ANTHRACENE	120-12-7	C14H10	178.23


Compound Name	ANTHRACENE
Molecular Formula	C14H10
Molecular Weight	178.23
CAS Registry Number	120-12-7
Sample Preparation	ATR single bounce
Comment	>99% arom. HC
Reference	CR94/MP0861
Copyright	© 2014 Nicoderm
Entry No.	1034
Library name	ATR-LIB-PHARMA-2-472-2501


Color	File	Path	Spectrum Type
	ETANOL-ANTRASEN.0	C:\Users\BRUKER\Documents\Bruker\OPUS_8.7.10\DATA\MEAS	Query Spectrum

b) Page 1 of 1

4 – rasm. a) Olingan antratsen IK-spektri, b) IK-spektrometr ma'lumotlar bazasidagi antratsen IK-spektri va olingan antratsen IK-spektrlari solishtirma spektrogrammasi.


Antratsen va uning gomologlari aralashmasini nitrat kislota ishtirokida oksidlash reaksiyasi quyidagi tenglamalar asosida boradi:






Olingan benzol 1,2,4,5-tetra karbon kislota piromellit kislota deb ham yuritiladi. Piromellit kislota asosan poliimid tolalar, plastifikatorlar, epoksid smolalarning qotiruvchi reagenti, korroziya ingibitorlari va h.k ishlab chiqarishda xom-ashyo sifatida qo‘llaniladi.. Bundan tashqari benzol 1,2,4,5-tetra karbon kislota issiqlikka bardoshli yopishtiruvchi moddalar tayyorlashda xam ishlatiladi, olingan maxsulotni solishtirma spektri 5-rasmda keltirilgan. Adipin kislota poliamid tolalar (neylon) tola olishda, plastmassalar olishda, plastifikatorlar sifatida, bo‘yoqlar olishda, insektitsidlar. Qog‘oz ishlab chiqarishda ishlatiladi. Sebatsin kislota sanoatda neylon tola, poliester tolalari va yopishtiruvchi moddalar, alkidli qatronlar stabilizatori sifatida ishlatiladi. U gidravlik suyuqliklar, kosmetika maxsulotlari, shamlar, antiseptiklar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Anratsen va uning gomologlari nitrat kislota bilan oksidlanganda, anratsen fraksiyasi tarkibida 70% atrofida anratsen borligini xromatografik tahlil natijalari ko‘rsatdi, xomashyo tarkibidagi anratsen antraxinongacha oksidlanganligini solishtirma IQ spektrda aniqlandi va spektr 5-rasmda keltirilgan.




5-rasm. Tar-maxsulot anratsen fraksiyasi oksidlanish maxsuloti tarkibidagi antraxinon IK-spektri

Naftilamin va antraxinon reaksiyasi natijasida bo‘yovchi moddalar olish uchun dastlab naftilamin tozalab olindi. 50 gr naftilaminni 100 gr spirda eritib filtrlandi. So‘ngra aralashmani rotorli bug‘latgichga solib spirtini aloxida ajratib olindi. Aloxida idishga antraxinondan 12 gr tortib 150gr spirt solib qizdirildi. Aralashma sovutilganda ikki qavatga ajraldi. Yuqori qavat spirtli qavat sariq rangli eritma va pastki qismi antraxinon cho‘kmaga tushgan qismga ajratildi. Naftilamindan spirtni bug‘latib ajratib olgach antraxinon bilan reaksiya amalga oshishi uchun magnitli aralashtirgich bilan jixozlangan kolbaga solib 90°S qizdirildi. Antraxinon va naftilamin aralashmasiga 1,5 gr borat kislota solib xaroratni 110°C da 2 soat davomida qizdirildi. Sungra aralashma 2 qavatga: ustki suyuq qismi va pastki cho‘kma quyuk qismga ajraldi. Naftilaminga antraxinon ta’sir ettirilganda moddaning filtrlaganda filtr kog‘ozda qolgan qoldig‘i AN-1 deb nomlandi. Naftilaminga antraxinon ta’sir ettirilganda moddaning filtrlaganda filtr qog‘ozdan o‘tgan va etilasetatda eritilgan qismini AN-2 deb nomlandi.




Antraxinonnaftilamin bilan formaldegid orasidagi reaksiyani amalga oshirish uchun 22 gr antraxinonnaftilamin va 26,4 gr formaldegidni (37% li) o'lchab bosimga bardosh beradigan reaktorga solib zich qilib yopib quritish pechiga 120°C ga 6 soatga qo'yildi.



Olingan polimetilenantraxinonnaftilamin ajratib olindi va suvda eritib ko'rildi va bu modda suvda erimadi, benzinda yaxshi eriydi. Olingan polimetilenantraxinonnaftilaminni TGA-DTA, SEM analizlari olindi.

Olingan bo'yovchi moddaning SEM-EDS analizi taxlili bo'yicha 6-rasmda ko'rsatilgan quyidagi natijalar olindi.

Element analizi natijalari asosida olingan modda tarkibini asosan uglerod, azot va kislorod elementlari tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin va bu natijalar nazariy hisoblarga mos kelishi jarayon natijasida olingan moddani to'g'riligini isbotlaydi.




6 – rasm. Polimetilenantraxinonnaftilamin element analizi.

Mikrotuzilma tahlili Jeol JSM-IT200LA (Yaponiya) SEM-EDS energiya dispersiyasini tahlil qilish ilovasi bilan amalga oshirildi.

Element tahlili analizi SEM-EDA - Elektron nurlar (elektron mikroskoplarda)

yoki rentgen nurlari (rentgen-flüoresan analizatorlarda) yordamida o'rganilayotgan namunaning atomlari qo'zg'atilib, har bir kimyoviy elementga xos bo'lgan rentgen nurlanishini chiqaradi. Bunday nurlanishning energiya spektrini o'rganish orqali namunaning sifat va miqdoriy tarkibi haqida xulosa chiqarish mumkin. Energiya dispersiv rentgen spektroskopiyasi usuli ob'ektlarni skanerlovchi elektron mikroskopda yoki transmissiya elektron mikroskopida o'rganishda qo'llanilishi mumkin, bu erda ob'ekt fokuslangan yuqori energiyali elektron nurlari yordamida tekshiriladi.

Izlanishlarni olingan bo'yovchi moddaning IQ spektrini olish bilan davom ettirib, molekula tarkibidagi funksional guruxlarni aniqlash bilan davom ettirdik. Polimetilenantraxinonnaftilamin IQ spektri 7-rasmda keltirilgan.



7 – rasm. Polimetilenantraxinonnaftilamin bo'yovchi moddaning IQ spektrogrammasi

Olingan namunalar MIRacle 10 FTIR bo'lgan IQ Affinity-1 uchun 4700 - 400 sm-1 to'lqin uzunligida ishlaydigan ZnSe prizma plastinkasiga ega "Shimadsu" firmasi ishlab chiqargan va optik spiral o'lchami <0,25 sm-1, IQ spektr diapozona 7000-400 sm-1 bo'lgan "Agilent Technologies Cary 640 Series FTIR" IQ – spektrometrlaridan foydalanildi.


Spektragrammada chiqqan intensiv cho'qqilarga mos keladigan funksional guruhlar muhokama qilindi va natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2 – jadval.

Polimetilenantraxinonnaftilamin bo'yovchi moddaning IQ-spektri tahlili

chastotasi, sm^{-1}	funksional guruh	tebranish turi
3356,06	aromatik yadrodagi -C-H	valent tebranish
3048,09	aromatik yadrodagi C=C	valent tebranish
2839,98	aromatik yadro	valent tebranish
1620,59	-CH ₂ OH	valent tebranish
768,3	C=O	valent tebranish
1515,84	C=N	valent tebranish

Polimetilenantraxinonnaftilamin bo'yovchi modda sifatida qo'llanilishida ayrim xolatlarida yuqori haroratlarda ishlatilishini inobatga olib uning harorat ko'ratilishi bilan massa yo'qotish darajasini va haroratga chidamliligini aniqlash maqsadida TGA-DTA tahlili o'tkazildi, olingan natijalar 8-rasmda keltirilgan.




8 – rasm. Sintez qilingan bo‘yovchi moddaning TGA-DTA analizi.

Tahlil natijasidan ko‘rinib turibdiki, sintez qilingan bo‘yovchi modda dastlabki 280,0 – 300,0°C haroratgacha massa yo‘qotishlarga uchramagan. Bundan kelib chiqadiki molekulada o‘zgarish bo‘lmagan va polimetilenantraxinonnaftilamin barqaror va u yuqori haroratda ham qo‘llanilishi mumkin, natijada o‘z rangini saqlab qoladi. 300,0°C dan 760,0°C gacha oraliqda keskin massa yo‘qotilishi molekulaning parchalanishidan dalolat beradi, shu oraliqda ya‘ni 490°Cda ekzotermik jarayon sodir bo‘lganligini ham kuzatish mumkin, bu molekuladagi qolgan funksional guruhlar orasida kimyoviy jarayonlar sodir bo‘lganligidan dalolat beradi.

Olingan bo‘yovchi modda – polimetilenantraxinonnaftilamin tuzilishi kristall yoki amorf moddaligini aniqlash uchun uning rentgen faza analizi olindi va tahlil qilindi, analiz natijasi 9-rasmda keltirilgan.

Rentgen analizi natijasi olingan moddaning amorf tuzilishda ekanligidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, sintez qilingan bo‘yovchi modda antraxinonli bo‘yovchi moddalar klassifikatsiyasida dispersli bo‘yovchi moddalar turiga kiritilishi mumkin.



9 – rasm. RFA analizi rentgenogrammasi

Taklif qilingan sxema asosida olingan antraxinonli bo‘yoq namunalari xossalari o‘rganildi va natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

Antraxinonli bo‘yoq namunalarning xossalari

1.	Ko‘rsatkich nomi	Me‘yor
2.	Tashqi ko‘rinishi	Jigarrangli suvda erimaydigan qattiq modda
3.	Granulometrik tarkibi, 0,1 mm sitodan o‘tgan, %	99,9
4.	Namligi, %, ko‘p emas	0,2
5.	Solishtirma og‘irligi g/dm ³	650-700
6.	Suvda eruvchanligi	erimaydi

Mahalliy xomashyo tar-maxsulot, naftilamin va formalin asosida sintez qilingan, taklif etilgan texnologik sxema asosida olingan bo‘yovchi modda suvda

erimaydigan, organik erituvchilarda yaxshi eriydigan xususiyatlaridan, hamda yuqori harorat va yorug'likga chidamli ekanligidan kelib chiqib uning ayrim qo'llanilish sohalari aniqlanib sinovlardan o'tkazish maqsadida mastrebatch namunalari olindi va ShGKM laboratoriyasida polietilen plyonkalar tayyorlandi. Tajriba jarayonlaridan lavhalar quyidagi rasmlarda keltirilgan.



10 – rasm. Polietilen va u asosida olingan masterbatch fotosuratlar

Sintez qilingan kukunsimon bo'yovchi modda ShGKMda ishlab chiqarilgan 0220 plyonka markali polietilenga aralastirilib masterbatch olindi. Masterbatchlar olishda bo'yovchi moddaning polietilen namunasi massasiga nisbatan 1,0 – 10,0% granular olindi. Masterbatchlar asosida ShGKM laboratoriyasida miniplyonka tortish qurilmasida eni 15 sm, uzunligi 250 sm bo'lgan qalinligi 0,5 – 6,0 mm bo'lgan 6 xil namuna polietilen plyonkalari olindi.

Dissertatsiyaning alifatik **“Tadqiqot ishining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari”** deb nomlangan 4 bobida bo'yovchi moddalar sintez qilishning texnologik sxemasi keltirilgan.

Ushbu qurilma antratsen gomologlari asosida bo'yoq ishlab chiqarishga mo'ljallangan sanoat qurilmasini tayyorlash uchun zaruriy texnologik muqobil sharoit ko'rsatkichlarini aniqlash va material balansni chiqarish uchun ishlab chiqilgan. antratsen gomologlari “Uz-Kor Gas Chemical” MCHJ uglevodorodlar pirolizi ikkilamchi mahsuloti tar mahsulotni fraksion haydash natijasida olinadi. Olingan antratsen gomologlari fraksiyasi kislotali muhitda oksidlovchilar bilan oksidlanib antraxinon, uni naftilamin bilan reaksiyasi natijasida olingan bo'yoqni formalin bilan polikondensatslash orqali oligamer polimetilenantraxinonnaftilamin ishlab chiqarish imkoniyati ushbu qurilmada ko'riladi.

Antratsen gomologlaridan bo'yoq olishga mo'ljallangan tajriba sinov qurilmasini tashkil qilayotgan uchta texnologik liniyalarni ishga tushirish 2027-yilda rejalashtirilgan.


Dastlab tar mahsulotdan antratsen gomologlari fraksiyasini ajratib olish uchun 01-RK da fraksiyalanadi va tozalanadi. Olingan antratsen gomologlari fraksiyasi 2-o'lchash idishiga yuboriladi. Antratsen gomologlari fraksiyasi, kons. HNO₃ va kons

H₂SO₄ 4 – reaktorga yuborilib oksidlanadi. Olingan massa antraxinon 5-reaktorga yuvish uchun yuboriladi. So'ngra 5-yuvish idishidagi antraxinon, 3-idishdagi formalin va 6-idishdagi naftilamin 9-reaktorga bo'yoq olish uchun yuboriladi. So'ngra hosil bo'lgan mahsulot 10-yuvish kolonnasida yuvilib, 11-sentrafuga kamerasiga yuboriladi. Dastlab tar mahsulotdan antratsen ajratib olgach qolgan qismi yoqib yuborilishi natijasida hosil bo'lgan issiq havo 12-quritish kamerasiga yuborilib mahsulot quritiladi. So'ngra 13-tegirmonda maydalaniladi va 14-tebranuvchi elaklardan o'tkaziladi va mahsulot tayyor holatga keladi.

Piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti tar-mahsulot asosida olingan bo'yovchi modda ishlab chiqarish texnologiyasi bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib quyida jarayonlar sharoiti va reaksiya tenglamalari keltirilgan:

1. Tar mahsulotni fraksion haydash orqali 320-370⁰C oralig'idagi antratsen gomologlari fraksiyasi ajratib olinadi.



2. Olingan antratsen gomologlari fraksiyasi oksidlovchi 56% nitrat kislota ishtirokida kislotali muhitda (1:6 mol nisbatda) 4-8 soat davomida oksidlanadi.



3. Sintez qilingan antraxinon naftilamin bilan reaksiyaga kiritildi va antraxinonnaftilamin olindi.



4. Antraxinonnaftilamin bosim ostida ishlaydigan idishga solindi va 35% li formalin bilan (dastlabki mol nisbati 1;4) harorat 110-120⁰C, 35 atm bosimda 6 soat davomida polikondensatlandi va polimetilenantraxinonnaftilamin xosil bo'ldi.



11-rasm. Antraxinonnaftilamin asosida antraxinonli bo'yoq ishlab chiqarish jarayoni sxemasi.

1. Konsentrlangan sulfat kislota uchun idish.
2. Antratsen gomologlari uchun idish.
3. Formalin uchun idish.
4. Oksidlash uchun reaktor.
5. Yuvish uchun reaktor.
6. Naftilamin uchun idish.
7. Nitrat kislota uchun idish.
8. Oksidlangan massa uchun idish.
9. Bo'yoq sintez reaktori.
10. Yuvish kolonnasi.
11. Sentrifuga.
12. Quritish kamerasi.
13. Tegirmon.
14. Tebranuvchi elaklar.

Ikkilamchi tar mahsulot asosida bo'yoq ishlab chiqarish texnologiyasi uchta liniyadan iborat bo'lib, bu liniyalar uzliksiz ishlaydi va quyidagicha tavsiflanadi. 11-rasmlarda antratsen gomologlari fraksiyasidan bo'yoq ishlab chiqarish texnologiyasi sxemasi berilgan.

Dastlab tar mahsulotdan antratsen gomologlari fraksiyasini ajratib olish uchun 01-RK da fraksiyalanadi va tozalanadi. Olingan antratsen gomologlari fraksiyasi 2-o'lchash idishiga yuboriladi. Antratsen gomologlari fraksiyasi, kons. HNO_3 va kons H_2SO_4 4 – reaktorga yuborilib oksidlanadi. Olingan massa antraxinon 5-reaktorga yuvish uchun yuboriladi. So'ngra 5-yuvish idishidagi antraxinon, 3-idishdagi formalin va 6-idishdagi naftilamin 9-reaktorga bo'yoq olish uchun yuboriladi. So'ngra hosil bo'lgan mahsulot 10-yuvish kolonnasida yuvilib, 11-sentrafuga kamerasiga yuboriladi. Dastlab tar mahsulotdan antratsen ajratib olgach qolgan qismi yoqib yuborilishi natijasida hosil bo'lgan issiq havo 12-quritish kamerasiga yuborilib mahsulot quritiladi. So'ngra 13-tegirmonda maydalaniladi va 14-tebranuvchi elaklardan o'tkaziladi va mahsulot tayyor holatga keladi.

XULOSALAR

Dastlab mamlakatimizdagi gazni qayta ishlash korxonalari ikkilamchi mahsuloti tar-maxsulot tarkibi kimyoviy tahlil qilindi va antratsen ajratib olish imkoniyatlarini o'rganildi. Tar-maxsulotdan antratsen va uning gomologlari fraksiyasi tarkibidan antratsen ekstraksiya usulida ajratib olish texnologik sxemasi ishlab chiqildi va muqobil sharoiti aniqlandi.

Antratsenni oksidlab antraxinon olish jarayoni muqobil sharoiti ishlab chiqildi, jarayonda ham oksidlovchi, ham katalizator vazifasida 56% konsentratsiyali nitrat kislotasi qo'llanilib yuqori natija berishi ilmiy asoslandi. Antraxinon olinish jarayonida oksidlash unumiga harorat, jarayon vaqti, havo berish tezligi, antratsenning konsentratsiyasi, nitrat kislotani reaksiyon muxitiga berish tezligi ta'siri ilmiy asoslandi.

Olingan antraxinon bilan naftilamin reaksiya jarayoni mahsuloti olinishida: reaksiya vaqti 45 minut, harorat 105°C , reaksiyaga kirishayotgan moddalar mol nisbati 1:1 hamda, jarayon hosil bo'layotgan suv miqdorini o'lchash orqali boshqarilishi kabi parametrlari ishlab chiqildi va formalin bilan metilol guruhlar saqlagan birikma sintezi 2,5 – 3,0 MPa bosimda, 120°S haroratda va 4 soat davomida optimal borishi aniqlandi. Olingan bo'yovchi modda – “polimetilenantraxinon-naftilamin” ishlab chiqarish texnologik sxemasini ishlab chiqildi.

Sintez qilib olingan bo'yovchi modda asosida tarkibida 1,0 – 10,0% pigment saqlagan masterbatch olindi va polietilenda yaxshi erishi, shu bilan birga gamma nurlar ta'sirida polimerning destruksiyasini sekinlashtirishi mumkinligi “Sho'rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ laboratoriya sharoitida turli qalinlikdagi polietilen plyonkalar olib isbotlandi.

Piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti tar-maxsulot tarkibidagi antratsen va uning gomologlari fraksiyasi tarkibidan antratsen, uni oksidlab antraxinon, u bilan naftilamin reaksiya jarayoni mahsulotini formaldegid bilan polikondensatsiya

maxsuloti – polimetilenantratsennaftilamin organik asosli bo‘yovchi modda olish jarayoni takomillashtirilgan texnologik sxemasi va shu jarayonning vaqtinchalik texnologik reglamenti ishlab chiqildi. Jarayonlar “Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ laboratoriya sharoitida olib borildi va namunalar olindi, hamda amaliyotga joriy qilindi. Tajribalarda olingan natijalar asosida dalolatnoma va ma’lumotnomalar tasdiqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.04.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХАЛИМОВА ОЙГУЛ БОЗОРКУЛОВНА

СИНТЕЗ АНТРАХИНОНА И КРАСИТЕЛЕЙ НА ЕГО ОСНОВЕ

02.00.14 – Технология органических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/T3252.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.tktu.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziyo.net.uz.

Научный руководитель:	Кадровджонова Фарида Мухаммаддиновна кандидат технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Исрамов Абдувахаб Исрамович доктор технических наук, профессор Абдуллаев Жахонгир Уроллаев угли Доктор философии в области технических наук, и.о.дочента
Ведущая организация:	Институт общей и неорганической химии

Защита диссертации состоится « 14 » 04 2026 г. в « 09⁰⁰ » часов на заседании Ученого совета №8, 03/20.12.2019.Т.09.01 при Ташкентском химико-технологическом институте по адресу: 100011, г.Ташкент, Шайхонтохурский р-н, ул. А.Навои, 32. Тел.: (99871) 244-79-20, факс: (99871) 244-7917, e-mail: tki@info.tktu.uz. Административное здание Ташкентского химико-технологического института, 2-этаж, конференц-зал.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института (зарегистрировано за № _____). Адрес: 100011, г.Ташкент Шайхонтохурский р-н, улица А. Навои, 32. Тел.: (99871) 244-79-20.

Автореферат диссертации разослан « 10 » 03 2026 года.
(протокол реестра рассылки № 211 от « 10 » 03 2026 года).

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ
TASHKENT CHEMICAL TECHNOLOGICAL INSTITUTE



Турабжанов С.М.
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., академик

Кадиров Х.Н.
Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней
д.т.н. профессор

Галимов Г.
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Спрос на различную продукцию переработки отходов нефтегазовой и химической промышленности увеличивается с каждым годом. Поэтому производство ароматических углеводородов из вторичных продуктов, получаемых в результате глубокой переработки нефти и нефтепродуктов, а также продуктов переработки природного газа, является одной из актуальных проблем, направленных на снижение воздействия на внешнюю среду и экологического ущерба, и служит основой для производства экспортно-ориентированных материалов, способных замещать импорт. Переработка отходов имеет большое значение для получения новых видов химических реагентов, повышения эффективности их использования, резкого сокращения потребности в импорте ароматических углеводородов и их производных.

Во всем мире ведутся научные исследования по переработке отходов нефтегазовой промышленности, получению из них высококачественных реагентов и совершенствованию технологии производства. В нефтегазоперерабатывающей промышленности особое внимание уделяется производству антрацена, антрахинона и их производных, соответствующих нормативным требованиям, путем разработки методов получения различных реагентов и их переработки на основе вторичных продуктов - пиролизного конденсата, а также производству полностью конкурентоспособной альтернативной продукции, способной соответствовать нормативным требованиям по качественным показателям импортной продукции.

В нашей стране ведутся научные исследования по совершенствованию и внедрению технологии производства антрацена, антрахинона и их производных, которые получают из смоляных продуктов — побочного продукта локального пиролиза. В стратегии развития нового Узбекистана поставлены задачи «широкого внедрения инноваций в экономику, развития кооперационных связей между промышленными предприятиями и научными учреждениями»¹.

В этой связи актуальным является проведение научных и практических исследований по развитию производства ароматических углеводородов и их производных, а также реализация программы локализации производств на их основе.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени будет способствовать реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О Стратегии действий по развитию Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», Постановлении от 29 августа 2017 года № ПП-3246 «О мерах по совершенствованию экспортно-импортной деятельности организаций химической промышленности» и других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики Узбекистан VII «Химическая технология и нанотехнология».

Степень изученности проблемы.

Результаты исследований по таким направлениям, как технология получения антрацена, антрахинона и их производных на основе смоляных продуктов, подбор специальных катализаторов, технология получения ароматических углеводородов различными методами переработки нефти и газа, представлены в трудах следующих мировых ученых, внесших значительный вклад в развитие этой области.

Е.Ф. Каминский, В.А. Хавкин, А.А. Мириманян, А.Г. Вихман, И.Б. Маришев, Д.Н. Кузнецов, К.И. Кобраков, А.Г. Ручкина, Г.С. Станкевич. Зарубежные ученые, в частности, сосредоточили свою научную деятельность в основном на извлечении антрацена из каменноугольной смолы и жидких продуктов процесса пиролиза при производстве антрахиноновых красителей. В то же время они сосредоточились на изучении термодинамических, физико-химических и химических свойств синтеза с теоретической и практической точки зрения. Албу, Б. Маркулеску, Д. Василеску, Чжан Л., Коул Дж.М., Уодделл П.Г., Лоу К.С., Лю К., Коэльо П.Дж., Кастро М.К.Р., Фонсека А.М.С., Рапозо М.М.М. Ученые из Европы, Китая и Америки проводили и продолжают проводить научные исследования по получению и свойствам органических порошкообразных азо- и диазо-, а также антрахиноновых и гетероциклических красителей.

